

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MIRXODJAYEVA FERUZAXON ULUG‘BEKOVNA

O‘ZBEK VA INGLIZ LISONIY ONGIDA XUSHMUOMALALIKNING
ASSOTSIATIV MAYDONI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on philological
sciences**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Mirxodjayeva Feruzaxon Ulug'bekovna O'zbek va ingliz lisoniy ongida xushmuomalalikning assotsiativ maydoni.....	3
Mirkhodjaeva Feruzakhon Ulugbekovna The associative field of politeness in the linguistic consciousness of Uzbek and English languages.....	25
Мирходжаева Ферузахон Улугбековна Ассоциативное поле вежливости в узбекском и английском языковом сознании.....	47
E'lon qilingan ishlar ro'uxati List of published works Список опубликованных работ	51

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MIRXODJAYEVA FERUZAXON ULUG‘BEKOVNA

O‘ZBEK VA INGLIZ LISONIY ONGIDA XUSHMUOMALALIKNING
ASSOTSIATIV MAYDONI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil2770 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilida (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Sadullayeva Nilufar Azimovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Mamatov Abdi Eshankulovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Qodirova Fazilat Shukurovna
filologiya fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "16" may soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 400. Tel.: (+99871) 246-08-62; faks: (+99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (3-qavat, 3-11-xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.A.Siddiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Sh.O.Nazirova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

S.E.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo tilshunosligining rivojlanish bosqichida tilni tizim sifatida o'rganish, dunyodagi hodisa va narsalarni tur, sinf va jinslarga ajratish, guruhlariga bo'lib tahlil qilish, analiz va sintez jarayonini tadqiq etish tilni undan foydalanuvchi insonlarga xos individual xususiyatlar, nutqiy faoliyat, vaziyat, zamon, makon va boshqa omillar bilan birgalikda tadqiq etish, til tizimini antropotsentrik tadqiq tamoyillari asosida o'rganish asosiy masalalaridan biriga aylandi. XX asr oxirida shakllangan va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika va korpus lingvistikasi kabi zamonaviy tilshunoslikning ilmiy yo'nalishlari mana shu masalalarni tadqiq etish bilan mashg'ul. Bu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar an'anaviy lingvistik yondashuvda shakllangan ayrim xulosalarni tubdan o'zgartirdi.

Jahon tilshunoslikida insonning olamni idrok etishi va uni til orqali ifodalash muammosini tahlil qilishda til sohiblarining lisoniy ongi, undagi lug'aviy birliklar zaxirasi, tafakkur va xotira imkoniyatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, neyrolingvistika va tizimli struktur tilshunoslik kabi fanlar asosida til sohiblari lisoniy ongi asosida assotsiativ maydonlarni modellashtirish, respondentlarning reaksiyalari orqali til birliklarining kognitiv tizimlarga xos modellarini aniqlab olish, shuningdek, tillararo qiyosiy tahlil doirasida belgilangan vazifalarni o'rganish aktual masalalardan hisoblanadi.

Tilni inson omili bilan bog'liq holda o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda, ma'lum bir voqelikni inson psixologik tasavvuriga asoslangan holda tilda aks ettirish masalasining tahlili psixolingvistika fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, tilning struktural xususiyatlarini va uning kognitiv asoslarini chuqurroq tushunishga imkon bersa, boshqa tomondan, til va tafakkur o'rtasida murakkab munosabatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Natijada, tilshunoslik va psixologiya sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar, inson tafakkurining til orqali ifodalanishini yanada kengroq va chuqurroq o'rganishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"¹, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzli va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari tog'risida"gi farmonlari², 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"³, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12 dekabrdagi 984-son "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni

¹ PF-4947-coH 07.02.2017. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida.

² PF-5850-coH 21.10.2019. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

³ lex.uz/acts/-03207162.

tasdiqlash haqida”⁴gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”⁵gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublikamiz fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan taraqqiy ettirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” deb nomlangan ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Assotsiativ birliklarni o‘rganishga bo‘lgan dastlabki qadamlar Aristotel davriga borib taqalsada, assotsiatsiyalarning o‘ziga xos tabiati tadqiqiga bag‘ishlangan ilk ilmiy ish muallifi Frensis Galton hisoblanadi⁶.

Assotsiatsiyalarni o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmida rus olimlari tomonidan jadal o‘rganila boshlandi. Yu.N.Karaulov, G.S.Shur, A.R.Luriya va G.A.Martinovich kabi tilshunos olimlar tomonidam assotsiatsiyalar bilan bog‘liq masalalar atroflicha tadqiq etildi⁷. Nutqdagi assotsiatiativ aloqalar A.A.Adrievskaya, Ch.Osgud kabi olimlarning e‘tiborini tortdi⁸. Tilga assotsiativ yondashuv F.fon.Gumboldt, A.A.Potebnya, N.V.Krushevskiy, A.Leontev, A.Vejbitskaya, A.A.Ovchinnikova asarlarida o‘z ifodasini topgan. Assotsiativ tajribada ifoda etilgan verbal assotsiatsiyalar ko‘plab olimlar, xususan, F.Galton, A.Tumba, G.Kent, A.Rozanov, D.Palermo, J.Diz, J.Jenkins, A.R.Luriya, A.A.Leontev, L.V.Saxarniy, E.F.Tarasov, A.A.Zalevskaya, Yu.N.Karaulov, E.N.Guts, I.A.Sternin, A.V.Rudakova, N.I.Stepikinlar tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan⁹.

⁴ 984-сон 12.12.2019. Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida.

⁵ <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>

⁶ Galton F. Psychometric Experiments // Brain, 1879. – № 2. – P. 149-162 // <https://doi.org/10.1093/brain/2.2.149>.

⁷ Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976-1976. – 354 с.; Щур Г.С. Теории поля в лингвистике. – М.: Наука, 1974. – 255 с.; Лурия А.А. Основы нейропсихологии. – М.: Издательство Академии наук СССР, 1970. – С. 374.; Мартинович Г.А. Опыт комплексного исследования данных ассоциативного эксперимента // Вопросы психологии. – М.: Школа-пресс, 1993. – № 2. – С. 93-99.

⁸ Андриевская В.В. Особенности словесных ассоциаций как фактор построения предложения // Исследования языка и речи. Ученые записки МГПИИЯ им. – М.: Тореза, 1971. – С. 111-116.; Osgood С.Е. Crucibles of Language: Explorations in the Semantics of Reading and Writing. – Urbana: University of Illinois Press, 1975. – 310 p.

⁹ Galton F. Psychometric Experiments // Brain, 1880. – № 2.; Kent G.H., Rosanoff A.J. A Study of Association in Insanity // American Journal of Insanity, 1910. – P. 67.; Deese J. On the structure of associative meaning // Psychological review, 1962.; Jenkins J.J., Palermo D.S. Mediation processes and the acquisition of linguistic structure. Monographs of the Society for Research in Child Development, 1964.; Лурия А.Р. Язык и сознание. – М.: МГУ, 1979. – 320 с.; Леонтьев А.А. Словарь ассоциативных норм русского языка. – М.: МГУ, 1977. – 192 с.; Сахарный А.А. Введение в психолингвистику. Курс лекций. – Л.: ЛГУ, 1989. – 92 с.; Тарасов Е.Ф. Актуальные проблемы анализа языкового сознания. – М., 2000. – С. 24-33.; Залевская А.А. Вопросы организации лексикона человека в лингвистических и психолингвистических исследованиях. – Калининград: КГУ, 1978. – 205 с.; Гуц Е.Н. Ассоциативный потенциал лексем – обозначений эмоций // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2, Языкознание. – Волгоград, 2023. – Т. 22. – № 1. – С. 53-64.; Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976; 1974.; Крушевский Н.В. Очерк науки о языке. – М.: Наследие, 1883. – С. 69-222.; Стернин И.А., Рудакова А.В. Психолингвистическое значение слова и его описание. – М.: Ламберт,

Xushmuomalalikning lingvistik kategoriya sifatida o'rganish yuzasidan rus tilshunosligida N.I.Formanovskaya, E.A.Zatsepina, T.V.Larina, ingliz tilshunosligida X.Grays, J.Xoffmann, J.Lich, G.Lakoff, P.Braun va S.Levinson, R.Kasper, R.Vats, S.Ide, J.House¹⁰, o'z navbatida, koreys, yapon va xitoy tilshunosligida I.D.Skorbatyuk, V.M.Alpatov va Y.Liang¹¹ kabi olimlar chuqur izlanishlar olib borganlar.

O'zbek tilshunosligida psixolingvistik tadqiqot metodi orqali til hodisalarini tahlil qilish nisbatan yangi uslub bo'lishiga qaramay, Sh.Iskandarova, A.Sobirov, B.Qurbonova, D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva, Sh.Usmonova ishlarida til hodisalari assotsiativ metod orqali tahliliy o'rganilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin¹². Biroq muayyan bir leksemaning assotsiativ maydonini yaratish yuzasidan olib borilgan yaxlit monografik tadqiqotlar mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan muvofiq "Turli tizimli tillarning tipologik va chog'ishtirma xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy-loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillarida "xushmuomalalik" leksemasi assotsiativ maydonining tizim hosil qiluvchi xususiyatlari, tarkibi va tuzilishini leksik guruhlanishning alohida turi sifatida tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va ingliz tilshunosligida lisoniy ong, assotsiativ jarayonlar va assotsiativ maydon tushunchasi, shuningdek, bu jarayonda amalga oshiriladigan tahlillarni nazariy jihatdan o'rganish;

2011. – 192 с.; Степыкин И.А. Ассоциативное поле вежливый: динамика психологически актуального содержания в лексиконе индивида // Science for Education Today, 2020. – Vol. 10. – № 2. – P. 151-166.

¹⁰ Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Высшая школа, 1989. – 159 с.; Зацепина Е.А. Концепты вежливости, грубость в русском коммуникативном сознании // Язык и национальное сознание. – Воронеж: Истоки, 2002. Вып. 3. – С. 49-55.; Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации: сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций: Дисс. докт. фил. наук. – М., 2009.; Goffman E. Interaction Ritual. Essays on Face-to-Face Behavior. – Garden City, New York: Anchor Books, Doubleday & Company, Inc., 1967.; Grice H.P. Logic and Conversation. In: Cool P.; Morgan J. (eds.). Syntax and Semantics. Vol. 3. Speech Acts. – New York: Akademie Press, 1975. – P. 41-58.; Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

¹¹ Gabriele Kasper. House and Juliane. Politeness markers in English and German // Florian Coulmas (ed.), 1981. – P. 157-185.; Ide S. Formal forms and discernment: two neglected aspects of linguistic politeness. – Multilingua, 1989. – № 8. – P. 223-248.; Скорбатьюк И.Д. Некоторые аспекты выражения форм вежливости в корейском языке // Национально-культурная специфика речевого поведения. – М.: Наука, 1977. – С. 306-319.; Алпатов В.М. Категории вежливости в современном японском языке. – М.: Наука, 1973. – 108 с.; Liang Y. Höflichkeit als interkulturelles Verständigungsproblem. Eine kontrastive Analyse Deutsch // Chinesisch zum kommunikativen Verhalten in Alltag und Wissenschaftsbetrieb // Jahrbuch Deutsch als Fremdsprache, 1992. – № 18. – С. 65-86.

¹² Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998.; Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007.; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004.; Курбонова Б.К. Локалик ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фанл. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2007.; Худойбергана Д. Ўзбек тилида бадиий матнларнинг антропоцентриқ талқини: Фил.фанл. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2015.; Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент: Meriyus, 2017.; Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол.фанл. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2018.; Usmonova Sh. Psixolingvistika asoslari. O'quv qo'llanma. Ma'ruzalar kursi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2014. – 96 b.

o‘zbek va ingliz tillari sohiblari lisoniy ongida assotsiativ tajriba yordamida “xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydonini yaratishga xizmat qiluvchi statistik hamda qiyosiy tahlilni amalga oshirish va assotsiativ maydon yaratish;

o‘zbek va ingliz tillarida “xushmuomalalik” va “qo‘pollik” leksemalarining sinonimik qatorini shakllantirish;

o‘zbek va ingliz tillari sohiblari lisoniy ongida “xushmuomalalik” va “qo‘pollik” leksemalarining psixolingvistik ma’nolarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti o‘zbek va ingliz tili sohiblari bilan o‘tkazilgan erkin assotsiativ tajriba asosida shakllangan “xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydonidan iborat.

Tadqiqotning predmeti zamonaviy o‘zbek va ingliz tillarining leksik-semantik tizimida “xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydonining tarkibi, tuzilishi va tizimli maqomini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada psixolingvistik tahlil, assotsiativ tajriba usuli, chog‘ishtirma, komponent, leksikografik, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillari sohiblari lisoniy ongidagi “xushmuomalalik” hamda “politeness” leksemalari yuzasidan olib borilgan assotsiativ tajribaning sintagmatik va paradigmatic munosabatli assotsiativ birliklari ko‘rsatkichlaridagi tafovut, til sohiblari olamining milliy lisoniy manzaralari orasidagi farq tufayli yuzaga kelganligi dalillangan;

erkin assotsiativ tajriba metodi orqali o‘zbek va ingliz tillari sohiblari lisoniy ongidagi “xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydonini shakllantirish asnosida yadro, yaqin hamda uzoq preferik sathlari, ularning umumiy va farqli tomonlari asoslangan;

assotsiativ tajriba tahlili natijasida o‘zbek tilida “xushmuomalalik” leksemasining *hurmat, tarbiya, odob, shirinso‘zlik, chiroyli muomala, muloyimlik, odamiylik, tabassum, samimiylik, yaxshi fazilat* kabi, ingliz tilida “politeness” leksemasining *respectfulness, kindness, good manner, good behavior, softening the conversation, courtesy, niceness, civility, gracefulness, not being rude, rules, honesty, meekness, being considerate, sincerity* kabi assotsiativ sinonimik qatorlari hosil bo‘lishi isbotlangan;

o‘zbek va ingliz tillari sohiblari orasida o‘tkazilgan erkin hamda yo‘naltirilgan assotsiativ tajriba natijasida “xushmuomalalik” leksemalarining *hurmat, tarbiya, shirinso‘zlik va muloyimlik* kabi o‘zbek tilida, *civility, good manner, respectfulness va softening the conversation* kabi ingliz tilida psixolingvistik ma’nolari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

o‘zbek va ingliz tillarida “xushmuomalalik” leksemasining leksikografik salohiyatini aniqlash jarayonida o‘zbek tilida assotsiativ izohli lug‘atlarni yaratish istiqbolli vazifa ekanligi dalillangan;

semantik-komponent tahlil doirasida “xushmuomalalik” leksemasi tarkibidagi “xush” komponenti nafaqat fors-tojik tilidan o‘zlashgan sifat va ot yasovchi prefiks (*xushzabon, xushxulq, xushnavoz*), balki alohida mustaqil so‘z (*xush kelibsiz, xush ko‘rmoq*) sifatida ham namoyon bo‘lishi izohlangan;

dissertatsiya psixolingvistika, neyrosemantika, neyrolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistika kabi sohalarning rivojlanishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqotda tadqiq etilgan ma'lumotlar assotsiativ lug'atlar yaratish, tarjimashunoslik va chet tillarini o'qitishda reprezentativ tizim modalliklari hamda assotsiativ birliklardan foydalanish masalalarida amaliy ahamiyat kasb etishi izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Muammoning aniq va ravshan qo'yilgani, xulosalarning leksikografik, statistik, psixolingvistik (assotsiativ tajriba metodi), qiyosiy, tasniflash, komponent tahlil metodlari orqali ishlab chiqilgani, shuningdek, nazariy g'oyalar rasmiy manbalardan olinib, o'zbek va ingliz tillaridagi ilmiy adabiyotlar hamda izohli lug'atlardan foydalanilgani, tadqiqotda keltirilgan ilmiy nazariy takliflar esa amalda vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, lisoniy ong, assotsiativ maydon va assotsiativ tajriba yuzasidan taqdim etilgan nazariy fikrlar psixolingvistika fanining jadal rivojlanishiga zamin yaratishi hamda ilmiy izlanishlarga qiziqishni oshirishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, tadqiqot jarayonida to'plangan materiallar psixolingvistika, tarjimashunoslik va lug'atshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda "xushmuomalalik" leksemasining ning o'zbek va ingliz tillari sohiblari lisoniy ongida assotsiativ maydon haqidagi nazariy hamda amaliy tavsiyalari asosida "Psixolingvistika", "Assotsiativ tilshunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Kognitiv tilshunoslik" fanlaridan maxsus kurs va seminarlar o'tish, shuningdek, mazkur fanlar doirasida darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish, qolaversa, o'zbek va ingliz tillariga oid assotsiativ hamda sinonimik va antonimik lug'atlarini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va ingliz tillari sohiblari lisoniy ongida "xushmuomalalik" leksemasining assotsiativ maydoni qiyosiy tadqiqi yuzasidan erishilgan ilmiy natijalari asosida:

o'zbek va ingliz tillari sohiblari lisoniy ongidagi "xushmuomalalik" hamda "politeness" leksemalari yuzasidan olib borilgan assotsiativ tajriba natijalarini qiyoslash asnosida respondentlarning javoblarida sintagmatik va paradigmatic munosabatdagi assotsiativ birliklar ko'rsatkichlaridagi tafovut til sohiblari olamining milliy lisoniy manzaralari orasidagi farq tufayli yuzaga kelganligi borasidagi ilmiy natijalari hamda xulosalaridan Erasmus+ dasturining Project № 598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 15-noyabrdagi №321/24-sonli ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada zamonaviy tilshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgan psixolingvistika fani, uning asosiy tushuncha va tamoyillari haqidagi nazariy fikrlardan, shuningdek, o'zbek va ingliz tili sohiblari lisoniy ongida mavjud xushmuomalalikning assotsiativ maydoni

hamda tahlillaridan loyiha doirasida OTM magistratura talabalari uchun onlayn darslar tashkil etishda, milliy va mintaqalararo tavsiyalarni, shuningdek, xalqaro mobillik va hamkorlik uchun UNICAC loyihasining strategik rejalarini ishlab chiqishda foydalanildi;

o‘zbek va ingliz tillari sohiblari lisoniy ongidagi “xushmuomalalik” hamda unga zid bo‘lgan “qo‘pollik” leksemasining assotsiativ sinonimik qatorlari yaratilishidagi xulosalardan va materiallaridan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan Ya-1-06-sonli “Professional tarjimonlarni tayyorlashda sifat nazoratini tashkillashtirishga komponent yondashuv” mavzusidagi amaliy ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanildi (O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 15-noyabrdagi №04/11-10765-sonli ma’lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi chet tilini o‘rganishda, ayniqsa, tarjima jarayonida “xushmuomalalik” va unga zid bo‘lgan “qo‘pollik” leksemalarining ikki tildagi assotsiativ sinonimik qatorlarini o‘rganish asnosida olingan lingvistik bilimlarni professional tarjimonlikda qo‘llashda amaliy yordam berishiga erishildi;

o‘zbek va ingliz tillarida “xushmuomalalik” leksemasining leksikografik salohiyatini aniqlash jarayonida o‘zbek tilida assotsiativ lug‘atlarni yaratish zarurligiga oid tavsiyalardan “Teleradiokompaniya ZO‘R” MCHJ orqali efirga uzatilgan “O‘zimda” tok shousining joriy yil oktyabr oyidagi “Kelajak ustozlari” dasturining ssenariy yozishda foydalanildi (№04/11-10767 16.11.2024). Natijada mazkur ko‘rsatuvda o‘zbek va ingliz tillarida “xushmuomalalik” leksemasining leksikografik salohiyatini aniqlash jarayonida o‘zbek tilida assotsiativ lug‘atlarni yaratish zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosida ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning asosiy hajmi 139 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Lisoniy ongning psixolingvistik aspektida o‘rganilishi**” deb nomlanadi va unda psixolingvistika faniga nazariy yondashuvlar,

lisoniy ongning psixolingvistik aspektida o'rganilishi va assotsiativ maydon nazariyasi tahlil qilingan.

Inson ongi olimlar tomonidan o'rganiladigan ruhiy faoliyatning eng murakkab, qiziqarli va oliy shakli hisoblanadi. Hozirgi kunda tilshunoslarda klassik tilshunoslik chegarasidan tashqariga chiqadigan va bir necha fanlar kesishmasida vujudga kelgan yangi fan yo'nalishlari doirasida tadqiqot olib borish katta qiziqish uyg'otmoqda.

Tilshunoslik va psixologiya chorrahasida vujudga kelgan shunday fanlardan biri – psixolingvistikadir. Nemis tilshunos olimi Vilgelm fon Gumboldtning “Til – ongni shakllantiruvchi organ”, – deya tilga bergan ta'rif lisoniy ong rivojlanishidagi o'rni haqida munozalarning hozirga qadar davom etishiga sabab bo'ldi. Darhaqiqat, tilning ma'lum voqelikni idrok etish va tushunish jarayonlaridagi roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixolingvistikaning obykti lisoniy ong bo'lib, u ushbu fan bo'yicha asosiy tadqiqot sohasi hisoblanadi. Psixolingvistika til va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganadi, shaxslarning nutqni qanday idrok etishi, tushunishi va hosil qilishini, shuningdek, tilning tuzilishi va ma'no jihatlarini qay tarzda anglashini tushunishga harakat qiladi.

S.E.Nikitina ham o'z navbatida mazkur atamaga lo'nda ta'rif beradi: “lisoniy ong – shunday bir hosilaki, unda til va tafakkur ayro holda mavjud bo'lmaydi, balki u yaxlit, bir butun hosila sifatida rivojlanadigan kognitiv hodisa”.

M.Mardiyev lisoniy ong kategoriyasida leksik-frazeologik birliklarni o'rganar ekan, lisoniy onga quyidagicha ta'rif beradi: “Ong – inson miyasining funksiyasi bo'lib, bu funktsiyaning mohiyati esa real dunyoni onikos ettirishdan iborat bo'lib, shaxsning lisoniy ongi uning nutqiy muomalasida amalga oshadi, uning o'ziga xos xususiyatlari strukturalaridagi sathlar mazmuning boyligiga bog'liq holda kechadi¹³.

Z.A.Akbarova “lisoniy ong-muayyan til vakilining leksik va grammatik sath birliklari orqali olamni idrok etish hamda anglash jarayonini ifodalovchi kognitiv tilshunoslik kategoriyasidir” ta'rifini keltiradi.

N.V.Ufimtsevaning ta'kidlashicha, “Tilni ijtimoiy belgilar tizimi sifatida qabul qilish ham lisoniy ongning bir qismidir”. Bunda lisoniy ongning chegaralari axborotni idrok etish va qayta ishlash aktlari natijalarini verbal, ya'ni so'z bilan ifodalash imkoniyati bilan belgilanadi¹⁴.

So'zning psixolingvistik ma'nosi til sohiblarining ongida muayyan tovush qobig'i bilan haqiqatdan bog'liq bo'lgan barcha semantik komponentlarini tartibga solingan yaxlitligi hisoblanadi¹⁵. Bu – til sohiblari ongida shakllangan alohida so'zni faollashtiruvchi va uni hosil qiluvchi barcha semantik komponentlar hajmi bo'lib, joylashgan makoniga ko'ra, yorqinroq yoki xiraroq bo'lgan markaziy va preferik unsurlar birligidan iborat. Psixolingvistik ma'no so'zning real ma'nosini ifodalaydi.

Psixolingvistik ma'no maydon tamoyili asosida tuzilganligi va uni tashkil etuvchi komponentlar yorqinlik bo'yicha iyerarxiyani hosil qilishi kuzatiladi.

¹³ Mardiyev M. Lisoniy ong kategoriyasida leksik-frazeologik vositalarning verballashuvi // Журнал иностранных языков и лингвистики, 2022. – № 4 (4) // <https://natscience.jdpu.uz/index.php/fil/article/view/7065>.

¹⁴ Akbarova Z. Lisoniy ong psixolingvistik tadqiqot objekti sifatida // Namangan Davlat Universiteti. – Namangan, 2020. – № 6. – B. 134-136. Retrieved from Edition: 2020 6-son (slib.uz)

¹⁵ Стернин И.А., Рудакова А.В. Психолингвистическое значение слова и его описание. – М.: Ламберт, 2011. – 192 с.

I.A.Sternin psixolingvistik ma'noga ta'rif berar ekan, uni leksikografik ma'noga nisbatan son jihatdan ko'proq bo'lishini hamda asosiy va pereferik ma'nolar nisbati esa ko'pincha lug'atlardan butunlay farq qilishini ta'kidlaydi. Shu bilan birgalikda, "ko'p ma'noli so'z semantemasi doirasida alohida psixolingvistik ma'nolar ham yorqinlik darajasiga ko'ra tartiblashtiriladi, yadroviy va periferik ma'nolar ajratiladi"¹⁶.

Eksperimental jarayonlarning semantik tahlili natijalariga ko'ra, o'rganilayotgan so'zning umumlashtirilgan yaxlit modeli tuziladi, ya'ni ushbu so'zning psixolingvistik ma'nosi deb tavsiflanadi. "Leksikografik va psixolingvistik (psixologik real) ma'nolar til egasining lisoniy ongini aks ettiradi, ya'ni til belgilarining ma'nolarida aks etgan, qayd etilgan va faollashgan ongni ifodalaydi"¹⁷.

Ma'lumki, inson borliqni til orqali anglaydi, tushunadi va his etadi. So'zlar ongimizda muayyan guruhlarni tashkil qiladi. Ularning ma'nosini anglash uchun har bir guruh mohiyat, undagi so'zlar voqelik, ma'nolar orqali ifodalangan bilim ekanligini tushunish lozim. Tilshunoslikda bu kabi til birliklarning shakliy yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro birlashuviga assotsiatsiya deb qaraladi. Predmet hamda so'z haqidagi tasavvurni bir-biridan ayro tushunish mumkin emas. Ularning o'zaro muvofiqligi assotsiatsiya qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Tilshunoslikda til elementlari orasidagi tizimli munosabatlarni tushunish XX asr boshlarida shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyur tomonidan til tavsifiga asos bo'ldi. F. de Sossyurning fikricha, til – belgilar tizimidir: "...til tizim bo'lib, uning barcha elementlari bir butunlikni tashkil etadi va bir elementning ahamiyati faqat bir vaqtning o'zida boshqalarning mavjudligidan kelib chiqadi..."¹⁸. Assotsiativ maydon atamasi esa ilmiy adabiyotlarda ilk marotaba Sh.Balli tomonidan qo'llanilib, assotsiativ guruh va qatorlar ma'nosini anglatgan¹⁹.

"Assotsiativ munosabat bir yoki bir necha sath birliklarining turli omillar bilan bog'liq holda inson tafakkurida assotsiativ bog'lanishni aks ettiradi. Bir til egasida biror til belgisiga nisbatan hosil bo'lgan assotsiatsiya boshqa til egasida yuzaga kelgan assotsiatsiyalardan farqlanadi".

D.Lutfullayeva assotsiativ maydondan o'rin egallagan assotsiativ birliklar turini ochiqlar ekan assotsiativ birliklar lingvistik va psixologik assotsiativ birliklarni quyidagicha farqlaydi: "Inson ongida hosil bo'lgan bir birini eslatuvchi psixik tasavvur, g'oyalar psixologik assotsiatsiya sanaladi. Lingvistik assotsiatsiyalar (verbal assotsiatsiyalar) ham til egasining voqelik haqidagi psixologik tasavvurida yuzaga keladi ammo, bu tasavvur tilda bir-biri bilan muayyan belgisiga ko'ra aloqada aniq lisoniy birliklar orqali reallashadi"²⁰.

Assotsiativ maydon "Lingvistik atamalar lug'ati"ga ko'ra, assotsiatsiyalar to'plami sifatida qaraladi. Assotsiativ maydon assotsiativ tajribalar natijalari asosida yuzaga keladi. Assotsiativ maydon umumiy xususiyatlarga ega elementlarni birlashtiradi. Assotsiativ maydon yaratish assotsiativ tajriba usuli orqali to'plangan

¹⁶ Стернин И.А. Психолингвистическое значение слово // Воронежский государственный университет Университетская пл., 1. – Воронеж, Россия, 394006 интернет ресурс.

¹⁷ Yuqorida keltirilgan manba.

¹⁸ Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – Москва, 1977. – 696 с.

¹⁹ Балли Ш. Общая Лингвистика и вопросы французского языка. – М., 1955. – С. 412.

²⁰ Lutfullayeva D.E. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017. – 140 b. – B. 23.

assotsiativ birliklar tahlili natijasida yaratiladi.

“Assotsiativ tajriba usulining psixolingvistikada uch turi mavjud bo‘lib, ular erkin, yo‘naltirilgan va zanjirli tajriba usullari hisoblanadi. Erkin assotsiativ tajriba metodida respondentlar berilgan stimuly so‘zga xotiralarida tiklangan birinchi reaksiya bilan javob bersalar, yo‘naltirilgan tajriba metodida keltirilgan javoblardan birini tanlashni yoki, stimuly so‘zni grammatik yoki semantik ifoda bo‘yicha til sohiblari xotirasida tiklangan so‘zni kiritish yoki tanlash so‘raladi. Zanjirli assotsiativ tajriba metodi esa, belgilangan vaqt ichida respondentlarning stimuly so‘zga berilgan davomiy (ketma-ket) reaksiyalarining ma‘lum darajada o‘zaro aloqasi kuzatiladi²¹”.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“O‘zbek va ingliz tillarida “xushmuomalalik” leksemasining leksik-semantik xususiyatlari”** deb nomlanadi va unda o‘zbek hamda ingliz tillaridagi “xushmuomalalik” leksemasining leksikografik va semantik tahlili amalga oshirilgan.

Insonlar o‘rtasida olib boriladigan muloqotning muhim xususiyatlaridan biri xushmuomalalikdir. Shuni ta‘kidlash kerakki, kundalik muloqot jarayonida xushmuomalalik eng muhim va zaruriy elementlardan hisoblanadi. Inson shaxsiyati va nafsoniyati muqaddasdir.

O‘zbek tilida “xushmuomalalik” leksemasining leksikografik talqini O‘zbek tilining izohli lug‘atlarining barcha nashrlari yordamida tahlil qilindi.

Ingliz tilidagi “politeness” leksemasining lug‘aviy ma‘nolari “The American Heritage Dictionary of the English Language”, “Chambers 21st Century Dictionary online”, “Collins COBUILD Dictionary (online)”, “Cambridge Dictionary, Consult Chambers 21st Century Dictionary”, “Merriam-Webster.com” va “Oxford English Dictionary Online” lug‘atlardagi manbalari asosida tahlil qilindi.

Ingliz tilidagi politeness leksemasining Merriam-Webster.com (MW). 2019. Springfield, MA: Merriam-Webster manbasidagi talqini:

Polite n

a) of, relating to, or having the characteristics of advanced culture. Izoh: Ilg‘or madaniyatga oid, unga tegishli yoki uning xususiyatlariga ega bo‘lgan.

b) marked by refined cultural interests and pursuits especially in arts and belles lettres. Izoh: Ayniqsa, san‘at va nafis adabiyot sohalarida yuksak madaniy qiziqishlar va intilishlar bilan ajralib turadigan;

c) showing or characterized by correct social usage.

Izoh: To‘g‘ri ijtimoiy muomala qoidalarini ko‘rsatadigan yoki ularga xos bo‘lgan (madaniyat ya‘ni etiket normalarini yaxshi biladigan inson ma‘nosida).

d) marked by an appearance of consideration, tact, deference, or courtesy marked by a lack of roughness or crudities. Izoh: E‘tibor, mulohazakorlik, hurmat va xushmuomalalik ko‘rinishi bilan ajralib turadigan, qo‘pollik va dag‘allikdan xoli bo‘lgan.

Manbada keltirilgan “politeness” leksemasining sinonimik qatori quyidagilardan iborat: *civil, manners, courteousness, hospitality, thoughtfulness, attentiveness, elegance, courtesy, genteel, graciousness, mannerly, well-bred, gallantry, respectability.*

²¹ Yuqorida keltirilgan manba.

Manbada keltirilgan “politeness” leksemasining antonimik qatori: *impoliteness, rudeness, discourtesy, incivility, boldness, impudence, shamelessness, disrespect, insolence, impertinence, vulgarity, surliness, audacity, brashness, boorishness.*

Shuningdek manbada “politeness” leksemasining etimologiyasi ham keltirilgan: *Middle English (Scots) “polit”, Latin “politus”, from past participle of “polire”.*

“Xushmuomalalik” leksemasi “xush” prefiksi + “muomala” semasi + lik ot yasovchi qo‘shimchasidan tashkil topgan. “Xush” prefiksi o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan kirib kelgan, otdan sifat turkumiga oid so‘zlar yasash uchun, ijobiy ma’no yuklash uchun qo‘llaniladi: xushzabon, xushomad, xushovoz, xushmuomala. Shu bilan birgalikda, o‘zbek tilida ham “xush” leksemasi mavjud. O‘zbek tili izohli lug‘atida keltirilgan “xush” leksemasi fors tilidan kirgan bo‘lib, yoqimli, yaxshi, ajoyib, shod, quvnoq ma’nolarini anglatadi.

“Muomala” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida u quyidagicha talqin qilinadi:

1. Kishilar bilan munosabat, so‘zlashuv, shunday munosabat yo‘sini. *Domla mashg‘ulot vaqtlarida birovlariga ko‘proq e‘tibor berib, birovlarining ko‘nglini uncha muncha o‘ksitsa ham, muomalada da‘g‘al emas edi* (P.Tursun. “O‘qituvchi”);

2. Ish, xizmat bilan bog‘liq bo‘lgan aloqa;

3. iqt. Mehnat mahsulotlarini oldi-sotdi vositasida ayirboshlash (Tovar xo‘jaligi uchun mos). Muomaladagi pul ayni paytda yurib, ishlatilib, aylanib turgan pul. Muomalaga kelmoq yoki yurmoq. Biror taklifga rozi bo‘lib kelishmoq .

O‘zbek tilidagi *xushmuomalalik* leksemasining tarkibiga kiruvchi ot yasovchi “lik” qo‘shimchasi so‘z yasashida bir qancha grammatik funksiyalarni bajaradi.

Ot+lik =ot: *buxorolik, angliyalik, germaniyalik;*

Sifatga qo‘shilganda odatda belgi va xususiyat otlarini ham yasaydi va og‘zaki nutqda “li” hamda “liq” shakllarida ham qo‘llaniladi: Ot+lik =sifat: *kulguli, qayg‘uli, obro‘li, hayajonli.*

Tadqiqotning uchinchi bobi **“O‘zbek va ingliz lisoniy ongida xushmuomalalikning assotsiativ maydoni”** deb nomlanib, unda o‘zbek va ingliz tillari sohiblari bilan o‘tkazilgan assotsiativ tajriba, uning bosqichlari va tahlillari natijasida hosil bo‘lgan assotsiativ maydonlar sharhi hamda qiyosiga bag‘ishlangan.

O‘zbek tili sohiblari lisoniy ongida “xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydonini yaratish maqsadida o‘tkazilgan tajriba uchun verbal assotsiatsiyalar asosiy material sifatida xizmat qildi. Chunki ularni o‘rganish asosida kundalik inson lisoniy ongida kechadigan qonuniyatlarni kuzatish mumkin bo‘lib, assotsiativ maydonlarni tahlil qilish orqali so‘zning keng ma’nodagi barcha semantik qirralari bilan bog‘liq bo‘lgan assotsiativ ma’nosini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Tadqiqotimizda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, lisoniy ong sohasiga oid tahlil natijalariga ega bo‘lish va o‘zbek tili sohiblari lisoniy ongida “xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydonini yaratish maqsadida 2024-yilning yanvar oyida erkin assotsiativ tajriba o‘tkazildi. Tajribamiz respondentlarning verbal assotsiatsiyalariga asoslangan bo‘lib, ushbu lingvistik yondashuv respondentlarning o‘z ona tilida ifodalangan o‘rganilayotgan hodisalarga munosabatlari haqida ma’lumot to‘plash imkonini beradi. Erkin assotsiativ tajriba metodi muloqotning kommunikativ tabiati insonlar o‘rtasidagi suhbat asosini qanday


tashkil etishini, uning muloqot ishtirokchilari dunyoqarashiga ta'sirini va til sohiblari ongida o'rganilayotgan kognitiv jarayonni aniqlashga yordam berishini inobatga olgan holda tanlangan.

O'zbek va ingliz tili sohiblari lisoniy ongida "xushmuomalalik" leksemasining assotsiativ maydonini yaratish maqsadida erkin assotsiativ tajriba tanlab olindi. O'tkazilgan tajribada respondentlardan berilgan stimuly so'zlarga iloji boricha tezroq va xayoliga ilk kelgan so'z bilan javob berishlari talab etildi.


Ishtirokchilar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti talabalari, professor o'qituvchilari, maktab o'qituvchilari va rahbar xodimlar, Alfraganus universiteti professor o'qituvchilari va talabalari, shuningdek, boshqa soha vakillari, jumladan, shifokor, tadbirkor, iqtisodchi, tarbiyachi, haydovchi, fermer, geodez, bosh menejer, muhandis, enaga kabi kasb sohiblari ishtirok etdilar. Tajriba savollarga javob berish jarayoni respondentlar uchun tez va qulay, ayni paytda, tajriba o'tkazuvchilar uchun esa oson va ishonchli muhitni yaratishga o'z hissasini qo'shgan google.doc platformasi yordamida Toshkent shahrida o'tkazildi. Tajriba oldidan respondentlarga quyidagi mazmundagi ko'rsatma, shuningdek, tajribaning maqsadi, mohiyati va ko'zda tutilgan natijalar haqida to'liq ma'lumot berildi. Bu so'rovnomada o'zbek tili ona tili hisoblangan respondentlar orasida eksperimental maqsadda olinayotgan so'rovnomaga bo'lib, sizdan berilgan so'zga xayolingizga kelgan ilk so'z bilan javob berishingiz so'raladi. Tajriba uchun tanlab olingan platformada ro'yhatdan o'tish va boshlab olish uchun qo'shimcha ko'rsatmalar berildi hamda amaliy yordam ko'rsatildi. Har bir savolga javob berish uchun 1 daqiqa va barcha javoblarni onlayn platformada qayd etish uchun umumiy 5 daqiqa vaqt ajratildi. Respondentlarga so'ralgan stimuly so'z uchun xotiralarida reaksiya tiklanmagan holda mana shu bandni ochiq qoldirish mumkin ekanligi haqida ogohlantirish berildi. So'rovnomada <https://docs.google.com/forms> platformasida yaratildi va olib borildi.

Shaxsiy ma'lumotlardan: F.I.SH., yosh, jins, tug'ilgan yili va kasbi so'raldi. O'zbek tili ona tili bo'lgan respondentlarning lisoniy ongida xushmuomalalik talqinini o'rganish maqsadida quyidagi savollar berildi:

1. Xushmuomalalik –
2. Xushmuomala –
3. Qo'pollik –
4. Qo'pol –



1-diagramma. Respondentlarning yosh jihatidan foiz ko'rsatkichlari



2-diagramma. Respondentlarning jins bo'yicha ko'rsatkichlari

Tajribada 15-70 yosh oralig'idagi 207 nafar respondentlar ishtirok etdilar va so'rovnomadan jami stimullar so'zlariga til sohiblari xotirasida tiklangan assotsiatsiyaga doir 1600 ga yaqin javob reaksiyalari o'rin oldi.

1.1.2-diagrammada keltirilgan statistik ma'lumotga ko'ra, respondentlarning 73.9 %, ya'ni 153 nafar ayol va 26.1 %ini 54 nafar erkak tashkil etdi. Tajribaning keyingi bosqichida har bir stimullar so'z uchun berilgan javob reaksiyalari umumlashtirildi. Umumlashtirish jarayonida stimullar so'zga umuman to'g'ri kelmaydigan reaksiyalar va to'ldirilmagan bo'shliqlar topilmadi, imloviy xatolar to'g'rilanib va shevalarga oid so'zlar saqlab qolindi. Lingvistik tahlildan so'ng statistik tahlil amalga oshirildi.

O'zbek tili ona tili bo'lgan respondentlar orasida "xushmuomalalik" leksemasining assotsiativ maydonini yaratish maqsadida 4 ta stimullar yaratildi.

Assotsiativ tajribaning ilk bosqichida shaxsiy ma'lumotlardan so'ng "xushmuomalalik bu –" ko'rinishida stimullar so'z berildi. Respondentlardan olingan reaksiya so'z va so'z birlikmalari chastotasi kamayib borish ketma-ketligida birlashtirildi.

"Xushmuomalalik" leksemasining assotsiativ maydoni quyidagi birliklardan tashkil topdi: *Tarbiya, xushmuomalalik bu-tarbiya demakdir, chiroyli tarbiya, tarbiyaning birinchi talabi, tarbiyalilik, tarbiyaviylik, tarbiyaning aksi, tarbiyalik – 34, hurmat, insonlarga hurmat, kattalarga hurmat kichiklarga izzat, o'zaro hurmat asosida barcha birdek muomalada bo'lish, andishali hurmat, hurmat bilan gapirish, hammaga doimo hurmatda bo'lish, boshqa odamlarni hurmat qilish, hurmat va yaxshi muomala, insonlarni bir-biriga bo'lgan hurmati, insonlarga hurmat bilan gapirish, hurmat qilish, bir biriga bo'lgan hurmat, odamlar bilan hurmat ila so'zlashish, insonlarga bo'lgan hurmat, o'ziga bo'lgan hurmat, hurmat bilan muomala qilish, hurmat bilan muloqot qilish – 34, odob, odob belgisi, odobiylik, odobiylik belgisi, odob-axloq, insonni odobi, odobdir – ota-ona tarbiyasini ko'rsatuvchi, chiroyli odob – 29, shirinso'zlik, shirinso'zlilik, shirinso'z bo'lish, insonlar qalbiga ozor yetmaydigan darajada shirinso'z bo'lish, shirinso'zlik, chiroyli gapirish, so'z go'zalligi, shirinso'z inson, shirinso'z bo'lish, shirin suhbatdosh, boshqa insonga nisbatan shirinso'z bo'lish – 28, hammaga birdek muomala qilish, katta va kichikka birdek munosabatda bo'lish, boshqa insonga nisbatan yaxshi muomala, yumshoq muomala, doim insonlarga yaxshi muomalada bo'lish, yaxshi muomalalik, chiroyli muomala, yaxshi muomalada bo'lish, o'zgalarga bo'lgan chiroyli muomala, odamlar bilan yaxshi muloqotda bo'lish, barchaga birdek yaxshi muomalada bo'lish – 22, muloyimlik, insonlarga muloyim bo'lish, muloyim va tushunarli ovozda gapirish – 13, odamiylik belgisi, odamiylik, odamgarchilik, odamgarchilikning bir turi, insoniylik, inson ziynati, xushmuomalalik bu – insonning ko'rki, odamning ko'rki – 10, tabassum, samimiy tabassum, hammaga tabassum, tabassum qilmoq, istaralik tabassum, kulib tabassum bilan gaplashish – 6, samimiyluk – 6, insonni taftini oladigan va qo'llab-quvvatlash xususiyatiga ega fazilat, fazilat, tarbiyalik fazilat, yaxshi fazilat, muhim ahamiyatga ega bo'lgan muloqot shakli bo'lib, u yuksak insoniy fazilatlardan biri hisoblanadi-6, ochiq ko'ngil, ko'ngli pok, oq ko'ngillik – 4, madaniyat – 4, eng yaxshi xislatlardan biri, yaxshi xislat, chiroyli*

xislat, go'zal xislat – 4, xulq-atvor, eng yaxshi xulq-atvor – 3, muhim ahamiyatga ega bo'lgan muloqot shakli bo'lib, u yuksak insoniy fazilatlardan biri hisoblanadi, yaxshi xarakter, xarakter – 2, e'tibor – 2, mehribonlik – 2, xushro'ylik – 2, xalimli bo'lish – 1, go'zallik – 2, ko'ngilchanlik – 1, etikani bilish – 1, o'zini qadrlash – 1, mehr ko'rsatishni bir bo'lagi – 1, bosiqlik – 1, sabrli – 1, har qanday vaziyatda o'zini boshqara olish – 1, sukut saqlash – 1, ezgulik – 1, yaxshilik – 1, tinchlik – 1, til ziynati – 1, to'g'ri so'zlashuv – 1, inson sifati – 1, kesatqsiz gapirish – 1, baxt – 1, inson ko'ngliga yo'l topish kaliti – 1.

To'plangan barcha assotsiativ birliklar avvalambor statistik tahlilga keyin esa berilgan reaksiyalarni tartiblash maqsadida mavzuviy guruhlariga ajratildi. Misol uchun:

tarbiya: *xushmuomalalik bu – tarbiya demakdir, chiroyli tarbiya, tarbiyaning birinchi talabi, tarbiyalilik, tarbiyaviylik, tarbiyaning aksi – 34;*


hurmat: *insonlarga hurmat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, o'zaro hurmat asosida barcha birdek muomalada bo'lish, andishali hurmat, hurmat bilan gapirish, hammaga doimo hurmatda bo'lish, boshqa odamlarni hurmat qilish, hurmat va yaxshi muomala, insonlarning bir-biriga bo'lgan hurmati, insonlarga hurmat bilan gapirish, hurmat qilish, bir-biriga bo'lgan hurmat, odamlar bilan hurmat ila so'zlashish, insonlarga bo'lgan hurmat, o'ziga bo'lgan hurmat, hurmat bilan muomala qilish, hurmat bilan muloqot qilish – 34;*

odob: *odob belgisi, odob belgisi, odob-axloq, insonning odobi, ota-onaning tarbiyasini ko'rsatuvchi odob, chiroyli odob – 29;*

shirinso'zlik: *shirinso'zlik, shirinso'z bo'lish, insonlar qalbiga ozor yetmaydigan darajada shirinso'z bo'lish, chiroyli gapirish, so'z go'zalligi, shirinso'z inson, shirin suhbatdosh, boshqa insonga nisbatan shirinso'z bo'lish – 28 va h.k.*

Xushmuomalalik assotsiativ maydonini yaratish maqsadida o'tkazilgan assotsiativ tajriba natijasi tahlil qilindi va olingan natijalar asosida assotsiativ maydon yaratildi.

Quyida o'zbek tili sohiblari lisoniy ongidagi “xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydoni keltirilgan (3-rasm).




3- diagramma. O'zbek tili sohiblari lisoniy ongidagi “xushmuomalalik”

leksemasining assotsiativ maydoni.

“Xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydoni yadrosi (ba’zi manbalarda markaz deb ham yuritiladi) tarkibidan quyidagi reaksiyalar o‘rin egallaganligi aniqlandi (Ilova 1):

- 34 reaksiya bilan “hurmat” – 14.65 %
- 34 reaksiya bilan “tarbiya” – 14.65 %
- 29 reaksiya bilan “odob” – 12.15 %
- 28 reaksiya bilan “shirinso‘zlik” – 12 % assotsiatsiyalari aniqlandi.

“Xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydoni yaqin pereferiyasidan joy olgan reaksiyalarni, ya’ni 18R “chiroyli muomala” – 7.75 %, 13R “muloyimlik” – 5.60 % va 9R odamiylik – 3.87 % foizlarda aks ettiradi.



4-diagramma. O‘zbek tili sohiblari lisoniy ongidagi “Xushmuomalalik” leksemasining assotsiativ maydonining yaqin pereferiyasidan joy olgan reaksiyalarning foiz ko‘rsatkichlari.

Assotsiativ maydonning uzoq pereferiyasidan quyidagi reaksiyalar o‘rin egallagan bo‘lib, ular 0.43 % dan – 2.58 % ga qadar 30R ni o‘z ichiga oldi (Ilova 2).

Assotsiativ tajriba natijasida olingan reaksiyalar “xushmuomalalik” leksemasining ma’nosini shakllantiruvchi semantik komponentlarning lisoniy ifodalanishi hisoblanadi.

Keying o‘rinlarda “xushmuomala” leksemasi – 230 ta reaksiyalar, “qo‘pollik” leksemasiga – 280 ta reaksiya, “qo‘pol” leksemasiga – 220 reaksiyalari o‘zbek tilida va “polite” leksemasi – 115 ta, “impoliteness” leksemasi – 131 ta, “impolite” leksemasi – 131 ta tahlilga tortildi va assotsiativ maydonlari yaratildi.

Ingliz lisoniy ongida “politeness” leksemasining assotsiativ maydonini yaratish maqsadida AQShda Survey Monkey platformasi orqali assotsiativ tajriba o‘tkazish uchun maxsus kibermakon tashkil etildi. Tajriba onlayn tarzda 05.09.2024 sanasida yakunlandi. Tajribada ishtirok etgan respondentlar soni 110 ta, ularning barchasi faol tarzda jarayonga jalb qilindi. Buzilgan hamda hisoblanmagan, tajribadan chetlatilgan anketalar yo‘q.

Tajribada ishtirok etgan 110 nafar respondentlarning 51 nafari ayol va 59

nafari erkak. Ingliz tili sohiblari lisoniy ongidagi “politeness” leksemasining assotsiativ maydoni yaratilishi uchun erkin tajribada ishtirok etgan respondentlarning jins va yoshi bo‘yicha foiz ko‘rsatkichi 3-Ilovada keltirilgan bo‘lib unga muvofiq:

- 18-29 yosh sohiblari – 13.63 %;
- 30-44 yosh – 36.36 %;
- 45-60 yosh – 33.63 %;
- 60-80 yosh respondentlar esa – 16.36 %ni tashkil etdi.

Respondentlarning reaksiyalari tahlilga tortildi, orfografik xatolar to‘g‘rilandi va ma‘nodoshlar birlashtirildi. Javoblar soni 110 ta, reaksiyalar soni 113 tani tashkil etdi. Shu bilan birgalikda, ikki va undan ortiq berilgan reaksiya so‘zlari alohida olinib, kerakli o‘rinlarda hisoblandi. Misol uchun “talking or responding in a friendly manner or not being rude” reaksiyasi ikkiga “talking or responding in a friendly manner” va “not being rude” komponentlariga ajratildi va kerakli o‘rinlarda qo‘shib hisoblandi.

